

“Biz siz bilan birgamiz!” Fanlar akademiyasining Sirdaryoga "Saxovat karvoni"

Azaldan xalqimiz “Bir mayizni qirq bo’lib yegan” va ne ne og’ir damlarni birdamlikda yengib o’tgan. Ayni damlarda xalqimiz boshiga tushayotgan jiddiy sinovli kunlar bizni yanada birdamlikka, hamjihatlikka undamoqda va bir maqsad yo’lida birlashtirmoqda.

Yaqindagina Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuz bergan falokat ham mehnatkash, qalbi daryo xalqimizni yanada jipslashlashtirdi. Ushbu kutilmaganda ro’y bergan baxtsiz hodisa sababli jabr ko’rgan vatandoshlarimizga yordam berish va qo’llab-quvvatlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, xodimlari, olimlar “Biz siz bilan birgamiz” aksiyasi doirasida insonparvarlik yordami sifatida kundalik hayotda ishlatiladigan uy-ro’zg’or buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, bolalar uchun turli xil o’yinchoqlar, kitoblarni Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani, Xalqabod mahallasiga (ushbu mahallaga 2000 ortiq aholi evakuatsiya qilingan) yetkazib berdi. Hozirda FA tizimida xayriya sifatida 110 mln.so’mdan oshiq mablag’ to’plandi va marafon davom etmoqda. Xayriya marafonida maxsus tashkil qilingan telegram tarmog’idan turib mingdan ortiq FA xodimlari ishtirok etishmoqda.





Bugun "El boshiga ish tushsa" deb bir yoqadan bosh chiqargan xalqimiz bu sinovlarni albatta yengib o'tadi!
"Biz birgamiz, birga yengamiz!"



